Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 378. (07): 4C (O'z). 075).
ORCID: 0009-0006-5540-5074

NOVERBAL NUTQIY MULOQOT – PROFAYLINGVISTIKA OBYEKTI

Berdimuratova Madina Xayrullayevna
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: madinaberdimuratova@65gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy tilshunosligimizda "profaylingvistika" atamasidan tez-tez foydalanilmoqda. Profayling – bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzish hisoblanadi. Profaylingvistika esa neyropsixolingvistikaning bir sohasi bo'lib, psixologiya, notiqlik, ritorika, grafalogiya va tilshunoslik fanlarining kesishmasida yuzaga kelgan. Profaylingvistikaning vazifasi – noverbal xulq va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdan iborat. Profaylingvistikaning asosiy tushunchalari noverbal xulq, noverbal muloqot hisoblanadi va uni tushunishda uchta muammo yuzaga keladi: *birinchidan*, lingvistik va nutqiy muloqot qilish jarayonida, ma'lumotni uzatish va qabul qilish ikkala taraf – so'zlovchi va tinglovchi tomondan amalga oshiriladi, noverbal muloqotda esa beixtiyor yoki g'ayriixtiyoriy darajada yuz beradi va bu ushbu hodisani tushunishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Olimlar bu jarayonni "muloqot" tushunchasi bilan atashadi. Shuning uchun ham mutaxassislar "noverbal xulq" tushunchasini ham qo'llab uni asoslashga harakat qilishadi. "Noverbal xulq" bir individ xulqiga oid bo'lib, individ o'zi tushunadimi, yo'qmi, biladimi qat'iy nazar, o'zida ma'lum bir axborotni tashiydi va tinglovchiga yetkazadi. *Ikkinchidan*, so'zlashuv nutqida so'zlovchi shaxslar tajribasining umumiyligi, sharoitlar yig'indisi, so'zlash paytidagi vaziyat, situatsiya fikrni ixcham ifodalashga imkon beradi. Situatsiya aytilmagan fikrning kompensatsiyasi sanaladi. Bunda gaplashayotgan va tinglayotgan kishilar gap nimada ekanligini, kim va nima haqida so'z borayotganligini bilishadi. Shuning uchun bunda fikr ifodasi uchun juda zarur bo'lmagan, hamma narsani aytmasdan «tushirib qoldirish» kuchli bo'ladi. Ushbu maqolada mazkur atamaning mohiyati, paydo bo'lishi va bugungi kundagi zamonaviy tilshunosligimizdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.
Kalit so'zlar: Noverbal xulq, lingvistik va nutqiy muloqot, noverbal muloqot, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, jest, mimika, pantomimika.

НЕВЕРБАЛЬНОЕ РЕЧЕВОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ОБЪЕКТ ПРОФИЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. В настоящее время в современной лингвистике все чаще используется термин «профайлингвистика». Профайлинг — это процесс построения психологического портрета личности. Профайлингвистика является отраслью нейропсихолингвистики и возникла на стыке психологии, ораторского мастерства, риторики, графологии и лингвистики. Задача профайлингвистики заключается в исследовании взаимосвязи невербального поведения и языка как единого целого. Основные понятия профайлингвистики — это невербальное поведение и невербальное общение, и при их понимании возникают три проблемы. Во-первых, в процессе лингвистического и речевого общения информация передается и

воспринимается как со стороны говорящего, так и со стороны слушающего, тогда как невербальное общение происходит либо непроизвольно, либо вне сознания участников, что вызывает определенные сложности в понимании данного явления. Ученые называют этот процесс понятием «общение». Именно поэтому специалисты стараются обосновать и использовать понятие «невербальное поведение». Невербальное поведение связано с поведением индивида, и независимо от того, осознает ли он это, оно передает определенную информацию и доходит до слушающего. Во-вторых, в разговорной речи общность опыта участников, совокупность обстоятельств, ситуация общения позволяет лаконично выразить мысль. Ситуация является компенсацией невыраженной мысли. В этом случае говорящий и слушающий понимают, о чем идет речь, кто и о чем говорит. Поэтому выражение мысли, в данном случае, становится менее необходимым, и часто что-то можно «опустить», не произнося это вслух. В данной статье рассматривается суть этого термина, его происхождение и значение в современной лингвистике.

Ключевые слова: Невербальное поведение, лингвистика и речевое общение, невербальное общение, денотативное значение, коннотативное значение, жест, мимика, пантомимика.

Non-verbal communication is an object of pro-linguistics

Annotation. Today, the them “profailinguistics” is often used in our modern linguistics. Profiling is the creation of a pychological image of a person. Profilinguistics is a branch of neuropsycholinguistics, which emerged from the intersection of psychology, speech, rhetoric, graphology and linguistics. The task of profile linguistics is to study the interaction of non-verbal behavior and language as a whole. Profilinguistics is a branch of neuropsycholinguistics, which arose at the intersection of psychology, speech, rhetoric, graphology and linguistics. The task of pro-linguistics is to study the interrelationship and interaction of non-verbal behavior and language as a whole. The main consepts of profile linguistics are non-verbal behavior, non-verbal communication, and three problems arise in understanding it: firstly, in the process of linguistics and speech communication, the transmission and reception of information is carried out by both parties – the speaker and listener, while in non-verbal communication it happens involuntarily or involuntarily, and this causes some difficulties in understanding this phenomenon. Scientists call this process With the concept of “communication”. That is why exsperts try to justify it using the concept of “non-verbal behavior”. Non-verbal behavior refers to the behavior refers to the behavior of an individual, regardless of whether the individual understands it or not, it carries certain information and conveys it to the listener. Secondly, the totality of the experience of the speaking persons, the sum of the conditions, the situation during the speech, the situation allows for a concise exspression of the throught. The people talking and listening know what it is, who and what they are talking about. For this reason. Theexspression of opinion is not very necessary, it is strong to “drop” without saying everything. This article discusses the meaning, origin and importance of this term in our modern linguistics today.

Key words: Non-verbal behavior, linguistics and speech communication, non-verbal communication, denotative meaning, connotative meaning, gesture, mimicry, pantomime.

KIRISH. Muloqot jarayonida ishlatiladigan har bir so‘z yoki ibora millat madaniyatini ko‘rsatib turadigan oyna sanaladi. Shunday ekan, nutqiy muloqot bu

jamiyatning, qolaversa millatning bir bo‘lagi bo‘lib, shu bilan bir qatorda o‘zgaruvchandir. Turli madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishishda har bir millatning madaniyat me’yorlariga rioya qilinadi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot shakllari verbal hamda noverbal munosabatga asoslanadi va muloqotning turli shakllarini kuzatib boradi. Bunday munosabat mohiyatida mazmuniy struktura yetakchilik qiladi. Ilmiy adabiyotlarda mazmuniy struktura grammatik shakllar bilan ifodalanishi alohida ta’kidlanadi, xususan, har bir gapning real borliq haqida biror fikr, xabar bayon qilishi gap mundarijasining voqelik bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi[G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1987. – 1.37].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. XI asrdan boshlab «ilmi qol» va «ilmi hol» tushunchalari muomalaga kiritildi. Dastlab mazkur ikki tushuncha so‘fiyning zohiriy va botiniy dunyosiga oid, murshiddan muridga berilishi mumkin bo‘lgan yoki bo‘lmagan bilimga nisbatan qo‘llangan. «Ilmi qol» so‘z bilan ifodalash, o‘rganish yo‘li orqali berilishi mumkin bo‘lgan bilimni anglatsa, «ilmi hol» har bir so‘fiyning, o‘z tafakkuri va e’tiqodiga xos, qalb ko‘zi bilan yetishgan, o‘zgalarga o‘rgatish imkoni bo‘lmagan bilimni bildirgan. Abu Rayhon Beruniy «qol ilmi», Bahouddin Naqshband esa «hol ilmi»ning yetuk vakili edi. Biri avlodlar uchun nodir asarlar yozib qoldirgan bo‘lsa, ikkinchisi yuzlab izdoshlariga ruhiyat sabog‘ini bergan. Shuning barobarida Beruniy o‘ziga zamondosh so‘fiylar ta’limotini inkor qilmagan, Naqshband ham dunyoviy ilmga xayrxoh bo‘lgan.

Har qanday fan asosida kishilarning olamni bevosita kuzatishi yotadi. Inson o‘zini qurshab turgan olam uzvlarini sezgi organlari yordamida his qiladi. Boshqalariga solishtiradi, farqli va o‘xshash belgilarini aniqlaydi. So‘ngra muayyan xulosaga keladi. Demak, har bir fan insonlarining olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo‘ladi.

… Forobiy bilishning ikki darajasini ajratadi. Xususan, u «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» («Ixso al-ulum») asarida ilmlarni keltirib chiqaradigan sabablar haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: «Olamda substansiya (javhar) va aksidensiya (oraz) hamda substansiya va aksidensiyani yaratuvchi Marhamatli Ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir» [Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shaxri. – Toshkent, 1983, 2.51].

Forobiy tilga olgan *javhar* va *oraz* tushunchalari ostida nima yotadi? Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta’sir qiladi. Ana shu sezgi organlarimiz yordamida his etish mumkin bo‘lgan belgilar oraz sanaladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aksidensiyani bildiradi.

Forobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz. Xususan, rang ko‘rish; ovoz eshitish; ta’m – maza, predmetlarning holati: sovuq-issiqligi, qattiq-yumshoqligi tana, hid hidlash sezgi a’zolari orqali his etiladi.

Insonning sezgi organlari yordamida hosil qilgan bilimi hissiy yoki amaliy bilim sanaladi. Bulardan tashqari, inson xayol surish, nutq yordamida ham bilimga ega bo‘lishi mumkin. Bilishning mazkur yo‘li *quvvai notika* va *quvvai mutaxayila* deyiladi. Notika quvvati boshqa barcha quvvatlarning (sezgilarning) yetakchisi, raisasidir [3.7-8]. Bundan ko‘rinadiki, Forobiy fikr yuritgan oraz bugungi kunda paralingvistikaning obyekti noverbal muloqot shaklidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish jarayoni ham murakkablashib bormoqda. Boshqa fan sohalarida bo‘lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoq obyektlari yuzaga kela boshladi. Olimlar jahon tilshunosligida kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonini lingvistik xususiyatlar asosida ikki guruhga

ajratib o‘rganishni tavsiya etadilar. 1. Tovush tili - eshitish asosidagi mazmun va shakl. 2. Imo-ishora – ko‘rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til. Anglash tushunchasi bilan bog‘liq holda «his qilish» yo‘nalishi ham lingvistika ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi [Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistiksi asoslari. – Toshkent, 2013. – 4.16].

Zamonaviy ilm-fanda profayling atamasi qo‘llanilib kelmoqdaki, bu ham insonning sezgi a’zolari orqali axborotni yetkazish va qabul qilib olish bilan bog‘liqdir.

Profayling (inglizcha: *profile* – “profil” - shaxsni tashqi ko‘rinishi) - noverbal va verbal xulqidagi eng ko‘p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha. Profayling - bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzishdir. 1888-yilda psixologik portret tuzishga uringanlardan biri britaniyalik jarroh Thomas Bond hisoblanadi [hhtps://uz.wikipedia.org/wiki/Profayling. Skinner, Keith; Evans, Stewart. The Ultimate Jack the Ripper Sourcebook. Little, Brown Book Group, 2013. ISBN 9781472107855. 5]. Profayling o‘zi tarkibiga - tezkor psixodiagnostika, emotsiyalarni tahlil qilish, manipulyativ texnikalar, gipnotexnologiya, so‘zamonlik, grafologiya, yuz ifodalari tahlili, mushaklar faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy psixologiyani qamrab oladi. Mazkur atama bugungi kunda bir qator sohalarda qo‘llanilib kelmoqda. Jumladan, birinchisi, kriminal profayling deganda, shaxsning o‘ziga xos fazilatlarini tashxislash bo‘yicha psixologik uslublar majmuasidan foydalangan holda taxminiy (qidirilayotgan) jinoyatchini psixologik portretini tuzish tushuniladi. Kriminal profayling uslubiyoti, jinoiy ish materiallari bilan ishlash va isbotlarni talqin qilishni nazarda tutadi. Odatda, sud va kriminal psixologiya doirasida olib boriladigan tadqiqotlarda gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlangan shaxsini o‘rganish hajmi aniqlanadi, lekin bu shaxsni o‘rganish hajmi yoki sxemasi, har qanday psixologik tadqiqot obyektiga taalluqli bo‘lishi mumkin: ijtimoiy demografik ma’lumotlar; jinoiy-huquqiy ma’lumotlar; tibbiy ma’lumotlar; tashqi (jismoniy) ma’lumotlar; hayot yo‘li; turmush tarzi; ahloqi; shaxsning yo‘nalganligi; qobiliyatlari; mijozi; tabiati va boshqalar. Ikkinchisi, transportdagi “profayling” tushunchasi havo safarida xavfli shaxslarni aniqlash uchun parvozdan oldingi tekshiruv paytida yo‘lovchilarni kuzatish va intervyu olish texnologiyasiga ishora qiladi[Abdusamatova Sh.S. Profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni // Academic research in educational sciences Volume 2. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekkistan 1179 www.ares.uz. 6]. Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda *profaylingvistika* fanining o‘rganilishiga ham asos bor.

Profaylingvistika – neyropsi-xolingvistikaning bir sohasi bo‘lib, psixologiya, notiqlik, ritorika, grafologiya va tilshunoslik fanlarining kesishmasidan yuzaga keladi.

Profaylingvistika (inglizcha: *profile* – “profil” - shaxsni tashqi ko‘rinishi, lingvistika – til haqida ta’limot) tilni neyropsixologiyaning fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va noverbal xulq, uning predmetini tashkil qiladi. Profaylingvistikaning predmeti – noverbal xulq va tilning o‘zaro aloqasi, o‘zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Profaylingvistikaning obyekti shaxsning psixologik qiyofasini chizish, ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan noverbal vositalar va natijalari inson ongida umumlashtirilib diniy, so‘zlashuv diskurslarda, badiiy matnlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Profaylingvistikaning asosiy tushunchalari noverbal xulq, noverbal muloqot hisoblanadi va uni tushunishda uchta muammo yuzaga

keladi: *birinchidan*, lingvistik va nutqiy muloqot qilish jarayonida, ma'lumotni uzatish va qabul qilish ikkala taraf – so‘zlovchi va tinglovchi tomondan amalga oshiriladi, noverbal muloqotda esa beixtiyor yoki g‘ayriixtiyoriy darajada yuz beradi va bu ushbu hodisani tushunishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Olimlar bu jarayonni "muloqot" tushunchasi bilan atashadi. Shuning uchun ham mutaxassislar “noverbal xulq” tushunchasini ham qo‘llab uni asoslashga harakat qilishadi. “Noverbal xulq” bir individ xulqiga oid bo‘lib, individ o‘zi tushunadimi, yo‘qmi, biladimi qat’iy nazar, o‘zida ma’lum bir axborotni tashiydi va tinglovchiga yetkazadi. *Ikkinchidan*, so‘zlashuv nutqida so‘zlovchi shaxslar tajribasining umumiyligi, sharoitlar yig‘indisi, so‘zlash paytidagi vaziyat, situatsiya fikrni ixcham ifodalashga imkon beradi. Situatsiya aytilmagan fikrning kompensatsiyasi sanaladi. Bunda gaplashayotgan va tinglayotgan kishilar gap nimada ekanligini, kim va nima haqida so‘z borayotganligini bilishadi. Shuning uchun bunda fikr ifodasi uchun juda zarur bo‘lmagan, hamma narsani aytmasdan «tushirib qoldirish» kuchli bo‘ladi [G‘ulomov A.R., Asqarova M.A. Hozirgi zamon o‘zbek tili. Sintaksis. – Toshkent, 1961. 7.148]. Nutq situatsiyasida uch holatni ko‘rish mumkin: nutq momentida tinglovchi (suhbatdoshning) bo‘lishi yoki bo‘lmasligi, suhbatdosh holatidagi istak va xohish, so‘zlashuvning konkret sharoiti (so‘zlashayotgan shaxslarni qurshab turuvchi butun sharoit — predmetlar, voqea-hodisalar, harakatlar); suhbatdoshlarning umumiy hayotiy tajribasiga bog‘liq faktlar va voqealarning mavjudligi. Tushirib qoldirilgan bo‘laklar so‘zlash paytidagi vaziyat, mimika va har xil imo-ishoralar orqali to‘ldiriladi. Bularning hammasi so‘zlashuv nutqida o‘ziga xos sintaktik strukturani vujudga keltiradi. Chunki savol-javob natijasida dialog vujudga kelar ekan, unda situasiya ta’sirida qisqa javob qaytarish talab etiladi. Qisqa javob qaytarish protsessida suhbatdoshlar to‘la shakllanmagan gaplardan unumli foydalanadilar. Demak, dialogda nutqiy situatsiya ta’sirida gaplar to‘la shakllanmasa-da, yozuvda yetishmagan (nutqda tushirib qoldirilgan) bo‘laklar kontekst orqali oydinlashadi [O‘rinbayev B. Hozirgi o‘zbek so‘zlashuv nutqi. Morfologiya. Sintaksis. – Samarqand, 2006. 8.98]. Bu haqda akad. V.V.Vinogradovning quyidagi fikri xarakterlidir: «O‘zaro so‘zlashuv, fikr almashuv jarayonida konkret nutqiy vaziyat va yordamchi fikr ifodalash vositalari (imo-ishora, yuz-qo‘l harakatlari), intonatsiyaning katta ekspressiv kuchi mavjud bo‘lganda gapning shunday struktural tiplari shakllanadiki, ularda ayrim gap bo‘laklar so‘zlar vositasida ifodalanmaydi, chunki ular kontekst va situatsiyadan aniqdir [Vinogradov V.V. Nekotorie zadachi izucheniya sintaksisa prostogo predlojeniya. Vaprosi yazikoznaniya, 1954, №1, 9.29]». Demak, noverbal muloqot odatdagi qolipga, tugal bir strukturaga ega emas, u vaziyatga qarab belgilanadi. Suhbatdosh reaksiyasini ifodalovchi noverbal vositalar, qo‘llanish darajasiga qarab tasniflanishi va o‘rganilishi zarur. *Uchinchidan*, sohaga oid adabiyotlarda “noverbal muloqot”, “noverbal kommunikatsiya”, “noverbal xulq” kabi tushunchalarni sinonim sifatida qo‘llab, chalkashlik keltirib chiqarmoqda. V.A.Labunskaya bu muammoni quyidagicha hal etadi: "noverbal muloqot – bu muloqotning shunday turiki, unda noverbal xulq va noverbal kommunikatsiya axborotni uzatish, o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish, obrazni shakllantirish va sherigini tushunish, boshqa shaxsga ta'sir ko‘rsatishning asosiy vositasi sifatida qo‘llanishi bilan xarakterlanadi [Labunskoy V.A. Osobennosti razvitiya sposobnosti k psixologicheskoy interpretatsii neverbalnogo povedeniya // http://www.voppsy.ru/issues/1987/873/873070.htm. 10]". Shulardan kelib chiqib, “noverbal muloqot”, “noverbal kommunikatsiya”,

"noverbal xulq" kabi tushunchalarni farqli jihatlarini ham o'rganishimiz zarur.

Muloqot ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va verbal, so'zsiz — noverbal (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish bilan bog'liq bo'lib, bir-birining ta'siriga ko'ra verbal va noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi. Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida lisoniy verbal va noverbal vositalarning hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi. Shunday qilib, nutqiy muloqotni oddiy nutqdan - lisoniy imkoniyatlarning muayyan moddiy shaklda voqelanishidan - farqlovchi muhim omil sifatida murakkabligini va uning verbal va noverbal vositalarning o'zaro uyg'unlashuvidan iborat bo'lgan butunlik ekanligini ko'rsatish mumkin [Saydullayeva S.S. O'zbek va ingliz tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dokt. (PhD0 dissert. – Samarqand. 2022. 11.92].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7% ni, tovushlar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni, tashkil qiladi. shundan kelib chiqib, har qanday nutq ishtirokchilari uchun ham implisit kontekst mazmuni aniq bo'lavermaydi. Buning uchun so'zlovchi nutqiy faoliyatiga aloqador voqelik tinglovchi uchun ma'lum bo'lishi kerak. Bayon qilingan verbal va noverbal kontekstda so'zlovchi ishora qilmoqchi bo'lgan yashirin mazmun yirik kontekstdir. V.Ya.Mirkin o'z tadqiqotlarida kontekstning quyidagi ko'rinishlarini ko'rsatib o'tadi: 1. Vaziyat (situativ) konteksti. 2. Yoyiq verbal kontekst. 3. Yoyiq noverbal kontekst. 4. Yig'iq kontekst [Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –Toshkent, 2013. 12.79].

Verbal kontekstda denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no strukturasi ham mavjudligi ko'zga tashlanadi, shunday holat noverbal kontekstda ham yuzaga chiqishini ko'rish va ilmiy asoslash mumkin, xususan, «Qalandarovning oppoq, osargan yuzi, ko'zlari atrofidagi tabassumni ifodalashi kerak bo'lgan ajin» noverbal kontekstida konnotativ struktura ifodalanadi va birinchi planga chiqdi. Denotativ struktura esa noaktual qator sifatida matnda invariant shaklda yashirin beriladi. Yuqoridagi matnda kishining ruxiy holati noverbal kontekstda ochiq shaklda beriladi. Bu jihatdan qaraladigan bo'lsa, verbal kontekstda so'zlovchining psixologik holati ochiq bayon qilinmaydi, har qanday holatda ham so'zlashuvchilar bir-biriga «hozir men seni qo'rqitaman» yoki «hozir men senga maqtanaman», «men seni mensimayapman», «men seni kalaka qilyapman» kabi psixologik munosabatlarini ochiq tekstda bermaydilar, bularning barchasi nutq yoki matnda nutqiy aktlar sifatida namoyon bo'ladi. So'zlashuvchilar bir-birlarining psixologiyasini bilganliklari uchun ham o'zaro muloqotga kirishadilar va nutqiy aktlar yordamida munosabat bildiradilar. «Iltimos», «buyruq», «yalinish», «va'da», «tahdid», «qo'rqitish», «ogohlantirish», «masxaralash», «haqorat» kabi qator ma'nolar nutqiy akt shakllari sifatida ifoda, nutq va matn mazmunidan anglashilib turadi hamda bular ochiq tekstda berilmaydi [Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013. 12.81].

Verbal kommunikasiyada noverbal kommunikasiya vositalari - yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgu va boshqalar so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo'q degani, ruslarniki teskarisi bo'ladi. Turli yosh guruhlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo'ladi. Masalan, bolalar ko'pincha kattalarga ta'sir etish, ularga o'z hohish va kayfiyatlarini o'tkazishda yig'idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so'z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga

noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

Noverbal kommunikatsiya belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo‘l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pantomimika (qo‘l, oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar – insonning qo‘l harakatlari bo‘lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo‘nalganligi ifodalanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italyan va fransuzlar o‘z muloqotlarini jestlarsiz tavsavvur eta olmaydilar. O‘zbek xalqida nutqda jestlardan foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og‘zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo‘lib, u orqali insonning o‘ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

XULOSA. Demak, shaxsni tashqi ko‘rinishi, uning noverbal va verbal xulqidagi eng ko‘p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlash, shaxsning o‘ziga xos fazilatlarini tashxislash orqali psixologik portretini tuzish va tilini o‘rganishdir. Bunda badiiy adabiyot, so‘zlashuv nutqidagi materiallaridagi qahramonlarning tili, noverbal xulqini o‘rganish orqali obrazga baho berish nazarda tutadi. Odatda, shaxsni o‘rganishda quyidagilar inobatga olinishi mumkin: ijtimoiy demografik ma’lumotlar; etno-sotsial, huquqiy ma’lumotlari; tibbiy ma’lumotlari; tashqi (jismoniy) ma’lumotlari; hayot yo‘li; turmush tarzi; ahloqi; shaxsning yo‘nalganligi; qobiliyatlari; mijozi; tabiati va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 1987. - Б.37
2. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент, 1983, 151-бет.
3. Нурмонов А., Махмудов Н. Узбек тилшунослиги тарихи. - Тошкент, 2000 - Б.7 - 8.
4. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. -Б.16.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Profayling. Skinner, Keith; Evans, Stewart. The Ultimate Jack the Ripper Sourcebook. Little, Brown Book Group, 2013. ISBN 9781472107855.
6. Abdusamatova Sh.S. Profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni // Academic research in educational sciences Volume 2. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 1179 www.ares.uz
7. Ғуломов А.Р., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. - Тошкент, 1961, 148-б.
8. Ўринбаев Б. Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи. Морфология. Синтаксис. – Самарқанд, 2006. -Б.98.
9. Виноградов В.В. Некоторые задачи изучения синтаксиса простого предложения. Вопросы языказнания, 1954, №1, с. 29.
10. Лабунской В.А. Особенности развития способности к психологической интерпретации невербального поведения \\ http://www.voppsy.ru/issues/1987/873/873070.htm
11. Сайдуллаева С.С. Ўзбек ва инглиз тилларида нутқий этикетларнинг лингвомаданий хусусиятлари: филол. фан. б. фалсафа докт. (PhD) диссерт. – Самарқанд, 2022. – Б. 92.
12. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. - Б.79.